

## **KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKLARI OB'EKTIV ZARURLIGINI ASOSLASH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolaning dolzarblii tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq olimlarning ilmiy-nazariy fikr-mulohazalarini o'rganish, ushbu tushunchani ahamiyatli jihatlarini aniqlash, kichik tadbirkorlikni davlat qo'llab-quvvatlash, hududiy biznes modelni taklif etish zarurati bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi "tadbirkorlik" kategoriyasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni chuqur tahliliy o'rganish asosida mualliflik ta'rifini taklif etish, kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi uchun shart-sharoitlar holatini statistik tahlil etish, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash bo'yicha chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish, hududiy biznes modelni taklif etishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda maqolada iqtisodiy statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalanilgan bo'lib, unda tadbirkorlik kategoriyasiga mualliflik tarifi berilgan, hududda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar statistik tahlil qilish asosida hududiy biznes model taklif etilgan, ilmiy asoslangan holda baholangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ma'muriy iqlim va xavfsizlik, moliyaviy resurslar, ta'minot tizimi, investitsiya, innovatsion g'oya, halqaro hamkorlik

**Аннотация.** Актуальность данной статьи объясняется необходимостью изучить научно-теоретические отзывы ученых, связанные с предпринимательской деятельностью, выявить значимые аспекты данного понятия, государственной поддержки малого предпринимательства, предложить территориальную бизнес-модель. Цель научно-исследовательской работы направлена на предложение авторского определения, основанного на углубленном аналитическом изучении определений, данных экономистами в категории "предпринимательство", статистическом анализе состояния необходимых условий для развития деятельности малого бизнеса, разработке системы мер по государственная поддержка малого предпринимательства, предложение территориальной бизнес-модели. При достижении поставленной цели в статье использовались методы экономико-статистического и теоретического анализа, в которых категории предпринимательства был присвоен авторский тариф, были предложены показатели, отражающие развитие действующих на территории предприятий малого бизнеса, региональная бизнес-модель, основанная на статистическом анализе, научно оценена, разработаны предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** предпринимательство, государственная поддержка малого предпринимательства, административный климат и безопасность, финансовые ресурсы, система снабжения, инвестиции, инновационная идея, международное сотрудничество

**Annotation.** The relevance of this article is explained by the need to study the scientific and theoretical reviews of scientists related to entrepreneurship, identify significant aspects of this concept, state support for small entrepreneurship, and propose a territorial business model. The purpose of the research work is aimed at proposing the author's definition based on an in-depth analytical study of the definitions given by economists in the category "entrepreneurship", statistical analysis of the state of the necessary conditions for the development of small business activities, the development of a system of measures for state support of small entrepreneurship, the proposal of a territorial business model. In achieving this goal, the article used methods of economic, statistical and theoretical analysis, in which the author's tariff was assigned to the category of entrepreneurship, indicators reflecting the development of small businesses operating

*on the territory were proposed, a regional business model based on statistical analysis was scientifically evaluated, proposals and recommendations were developed.*

**Keywords:** entrepreneurship, state support for small businesses, administrative climate and security, financial resources, supply chain, investment, innovative idea, International cooperation

**Кириш.** Jahon tajribasi ko'rsatishicha, kichik tadbirkorlik hudud iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismi, mintaqqa ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning muhim omili bo'lib, uning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab beradi, iqtisodiyotdagi hududiy notejislikni kamaytirish imkoniyatiga ega. Ta'kidlab o'tish joizki, aynan kichik tadbirkorlik rivojlanayotgan hududlarda aholi daromadi, tashabbuskorligi ortib, insonlarning o'z faoliyatlarini natijalari uchun javobgarligi oshib bormoqda. Kichik biznes bir qator ijtimoiy tamoyillarni mintaqqa darajasida bajaradi, aholi ish bilan bandligini oshiradi, ularning daromadlari va byudjet tizimining o'sishini ta'minlaydi. Kichik tadbirkorlik innovatsiyalarni hayotga tadbiq etishning eng muhim omili bo'lib, texnik-texnologik jihatdan rivojlangan tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga muhim hissa qo'shamoqda.

Mamlakat iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik muhim o'rinni tutib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy kuchga aylanishi kerak. Rivojlangan g'arb davlatlarida iqtisodiyot taraqqiyoti ko'p hollarda kichik va o'rta biznes sub'ektlari amaliy tajribasiga bevosita bog'liq bo'lib, ularning YaIMdag'i ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi 2017 yil 27 iyunni mikro, kichik va o'rta korxonalar kuni deb e'lon qilish orqali global iqtisodiyotda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini o'rni yuqori darajada bo'lishini e'tirof etgan[2]. Bundan ko'zlangan maqsad, kichik va o'rta tadbirkorlikni jahon iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun investitsiyalar yo'naltirish zarurligi haqida jamotchilikni xabardor qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi farmonining tub mohiyati ham milliy iqtisodiyotni yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning YaIM dagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi[1].

Shuningdek mazkur asarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini oshirish va uni rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi(1-rasm).

Ushbu asarni o'rganish natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'z ma'ruzalarida "iqtisodiy islohotlarni qat'iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo'llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, avvalo tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo'yicha islohotlarni jadallashtiramiz" deb ta'kidlaganlarining o'ziyoq mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar eshigi keng ochilayotganligidan dalolat beradi[2].

Keyingi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator huquqiy-me'yoriy asoslarning yaratilishi ushbu soha rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi «Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2746-sonli, «Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2017 yil 1 fevraldag'i PQ-2750-sonli, «Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 2017 yil 10 fevraldag'i PQ-2768-sonli, «Tadbirkorlik sub'ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 17 martdag'i PQ-2844-son qarorlari, «**Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash**

**va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 11 apreldagi PF-5409-sonli, «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida»gi 2022 yil 08 apreldagi PF-101-sonli farmonlari bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.**

### **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlanadirishning ustuvor vazifalari**

Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «Ochiq muloqoti»ni o'tkazish

Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlanirish. Sharoti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlanirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish

Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlanirish

Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish

2026 yilga borib tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish

#### **1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha islohotlar samarasini oshirish va uni rivojlanirishning ustuvor vazifalari**

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'pgina iqtisodchi olimlar tadbirkorlikka oid tushunchalarini funksional va fanlararo yondashuvlarga asoslangan kontseptsiyalar bo'yicha tavsiflaydilar. E'tiborli, funksional yondashuvlarga asoslangan kontseptsiyalarda tadbirkorlik faoliyatiga mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida emas, tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi (1-rasm). Turli davrlarda tadbirkorlikka nisbatan olimlarning iqtisodiy qarashlari turlicha bo'lgan.

Funksional yondashuvlar yo'naliishi vakili, tadbirkorlik nazariyasi asoschisi R.Kantilon o'z tadqiqotlarida bozordagi talab va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi tafovutlar, kapitalning doimiy harakati, bozor muvozanati buzilishi kabi xolatlar ayrim shaxslarga chayqovchilik (spekulativ) daromad olish imkoniyatini berishini aniqlagan. Shuningdek, aynan R.Kantilon iqtisodiyot fanida "tadbirkor" iborasidan (entrepreneur fr. vositachi) birinchi marta foydalangan.

Funksional yondashuvlar yo'naliishi yana bir vakili ingliz klassik maktabi namoyondasi A.Smit tadbirkor deganda mulk egasi( kapitalist)ni tushungan bo'lib, u o'z asarida "tadbirkor" deganda foya olish maqsadida qandaydir iqtisodiy g'oyani amalga oshirish uchun tavakkalchilikka tayyor kapital egasini tushungan. Uning fikricha, bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik ishlab chiqarishning asosiy omillari mavjud bo'lgan sharoitda tasodifan paydo bo'ladigan tashabbuskorlik asosida mustaqil boshqariladigan faoliyatdir[3]. Bu bilan u tadbirkor o'zi mustaqil ishlab chiqarishni rejalashtirishi va uning natijalarini tasarruf etishi bilan "tadbirkor" va "kapitalist" tushunchalariga sinonim sifatida qaraydi.

### Funktsional yondashuvlarga asoslangan kontseptsiyalar

Mualliflar

Tadbirkorlik faoliyati turli noaniqlik, xavf-xatar, tavakkalchilik elementlarini qamrab oladi, tadbirkor esa, alohida fazilatlar egasi (oldindan ko'rish, tavakkal qilish va qabul qilinadigan qarorlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish kabi iste'dodlar sohibidir)

R.Kantilon, A.Smit,  
Y.Tyunen, G.  
Mangoldt, F.Nayt,  
Y.Shumpeter

Tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish omillari funktsiyasi orqali ifodalanadi. Tadbirkorlik faoliyati asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotlarni sotish qobiliyati yotadi. Tadbirkor esa ishlab chiqarish birligi doirasida odamlarni boshqaruvchi shaxs sifatida e'tirof etiladi.

J.B.Sey

Tadbirkorlik faoliyati novatorlik funktsiyasi orqali ifodalanadi. Bunda firmalar mahsulot va xizmatlarning yangi turlari, yangi xom ashyo manbalari, ishlab chiqarishning yangi usullari, yangi bozorlarni zabt etishi nazarda tutiladi.

Y.Shumpeter,  
K.Makkonel, S.Bryu

Tadbirkorlik faoliyatiga bozor iqtisodiyoti kategoriyasi sifatida yondashiladi. Tadbirkorlik raqobatli bozor jarayonini xarakterlaydi

F.Xayek, L.Mizes,  
M.Rotbard

### Fanlararo yondashuvlarga asoslangan kontseptsiyalar

Tadbirkorning iqtisodiy xulq-atvorini o'ziga xos xususiyatlarini shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini psixologik motivlardan foydalanish asosida tahlil qilishga asoslangan yondashuv

V. Zombart, M.  
Veber,  
D. Makklelland

Iqtisodiy ta'limotlarning institutsional yo'nalishi, tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy institut nuqtai-nazaridan baholashadi (tadbirkorlik etikasi tamoyillari, qonunchilik, bitimlar), tadbirkorlikning jamiyat institutlari bilan bog'liqligi o'rganiladi

A. Gibb, D. Djonson,  
R. Bruksben, E.  
Nelson,  
D. Stori, A. Oslund

### Tadbirkorlik faoliyatini maktabi

Iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatining amal qilish qonuniyatlaridan tashqari, tadbirkorning xarakteri bilan bog'liq ichki omillar, hamda tashqi muhit ta'siri bilan bog'langan tashqi omillarga etibor qaratiladi

U. Gartner,  
Mintsberg, Xofer

### Tadbirkorlik faoliyatini o'r ganish bo'yicha kompleks yondashuv

Iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda tadbirkorlik tushunchasini yangi xususiyatlar bilan boyitib borish

A. Shapero,  
L. Marua

### 2-rasm. Tadbirkorlik faoliyatiga oid yondashuvlar[5]

Ushbu olimlar fikrlaridan tadbirkorlik tavakkalchilik va xavf-xatar sharoitida faoliyat yuritish bilan bog'liq jarayon ekanligini anglash mumkin. Funktsional yondashuvlar yo'nalishi yana bir vakili J.B.Sey bo'lib, u hayotining muayyan davrida to'qimachilik fabrikasiga ega bo'lib,

ishbilarmonlik bilan shug'ullangan va kichik biznes nazariyasi hamda tadbirkorlik tushunchasi rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. U bir qator asarlarida[4] ishlab chiqarish va taqsimot nazariyasini rivojlantirib, bunda asosiy rolni tadbirkorlikka bergan[4]. Olim tadbirkor (entrepreneur)ning asosiy vazifasi ishlab chiqarish omillari: yer, kapital va inson omilini muvofiqlashtirish deb hisoblagan.

Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyati asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotlarni sotish qobiliyati yotadi, tadbirkor esa ishlab chiqarish birligi doirasida odamlarni boshqaruvchi shaxsdir. Tadbirkorlik bo'yicha funktional yondashuv vakillaridan yana biri Y.Shumpeterdir. U iqtisodiy nazariyaga kiritgan to'rtinchchi ishlab chiqarish omilini (tashkilot) tadbirkorlik omili deb nomladi hamda tadbirkorlikka innovatsiyani amalga oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida yondashdi.

Tadbirkorlik vazifalarini ham yangilik yaratishga qaratilgan vazifalar bilan bog'ladi va u bir qator tadbirkorlikning asosiy vazifalarini keltirib o'tdi (2-rasm).

#### A.Y.Shumpeter tomonidan keltirilgan tadbirkorlikning asosiy vazifalari

- Iste'molchilar uchun yangi bo'lgan yoki ilgari ham ishlab chiqarilgan, ammo yangi xususiyatlariga ega bo'lgan yangi moddiy ne'matni yaratish;
- Ushbu sohada shu kungacha qo'llanilmagan ishlab chiqarishning yangi usulini joriy etish;
- Yangi savdo bozorini egallash yoki an'anaviy bozorlaridagi ulushini kengaytirish;
- Ishlab chiqarishda yangi turdag'i xom ashyo yoki yarim tayyor ahsulotlardan foydalanish;
- Biznesning yangi tashkiliy tuzilmasini joriy etish, monopol mavqeiga ega bo'lish yoki aksincha, monopoliyani yengib o'tish

#### 3-rasm. A.Y.Shumpeter tomonidan keltirilgan tadbirkorlik vazifalari<sup>1</sup>

Y. Shumpeter tadbirkorlik faoliyatini novatorlik funktsiyasi bilan ifodalaydi. Mashhur «Ekonomiks» o'quv qo'llanmasi mualliflari K.Makkonel va S.Bryu tadbirkorlikni bir qator ajralmas shartlar va talablarga asoslangan maxsus bir faoliyat turi deb bilishadi (3-rasm).

#### K.Makkonel va S.Bryuning tadbirkorlikka oid qarashlari

- **Birinchidan**, tadbirkor yer, kapital va ishchi kuchi resurslarini biror bir mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish jarayoniga birlashtirish tashabbusi bilan chiqadi. Katalizator vazifasini o'tab, u ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuchi va vositachi sifatida namoyon bo'ladi, turli resurslarni birlashtirib, foyda olish sari yo'naltiradi
- **Ikkinchidan**, tadbirkor biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qilish kabi murakkab vazifani o'z zimmasiga oladi, ushbu qarorlar korxona istiqbolini belgilaydi
- **Uchinchidan**, tadbirkor - bu yangi mahsulotlar (xizmatlar), yangi ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy etish va biznesni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etishga intilayotgan innovator
- **To'rtinchidan**, tadbirkor - bu tavakkal qiladigan odam. U nafaqat vaqtini, mehnatni, ishbilarmonlik obro'sini, balki o'z mablag'larini ham, sheriklarini ham, aktsiyadorlarini ham tavakkal qilishga tayyor

#### 4-rasm. K.Makkonel va S.Bryuning tadbirkorlikka oid qarashlari[6]

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi

Funksional yondashuvning boshqa bir vakillari tadbirkorlik faoliyatiga bozor iqtisodiyoti kategoriyasi sifatida qarashadi[7].

Fanlararo yondashuvlarga asoslangan kontseptsiya vakillari tadbirkorlik faoliyatiga turli fanlar nuqtai-nazaridan, yondashadi (iqtisodiyot, falsafa, sotsiologiya, boshqaruv). Ayniqsa, xulq-atvor bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Ushbu yondashuv vakillari tadbirkorning iqtisodiy xulq-atvoriga, ayniqsa, psixologik motivga alohida e'tibor qaratadilar. Ular tadbirkorga o'z kuchiga ishonuvchan, har qanday xavf-xatarga tayyor, o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengib o'tuvchi kuchli inson sifatida, tadbirkorlik faoliyatiga esa, kapitalizmni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarashadi.

Ushbu maktab namoyondalaridan R. Nelson va S. Uinterlar[8] bugungi kundagi tadbirkorlikka xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida aks ettiradilar (4-rasm).

Fanlararo yondashuvlarga asoslangan kontseptsiyaning iqtisodiy ta'limotlar institutsional yo'nalishi vakillari tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy institut nuqtai-nazaridan baholashadi (tadbirkorlik etikasi tamoyillari, qonunchilik, bitimlar), tadbirkorlikni jamiyat institutlari bilan bog'liq holda o'rghanadilar.

Tadbirkorlikka xos bo'lgan xususiyatlar	
Tashabbuskorlik	Imkoniyatlarni izlab topishga yo'naltirilgan hatti-harakat
Axborotlarni qidirish	Imkoniyatlarni tanlashda ob'ektiv korxonalarini tan olish
Tizimli rejalashtirish	O'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishga bo'lgan qat'iyatlik
O'z kuchiga bo'lgan ishonch	Ishni yuqori sifatda tashkil etishga yo'naltirilganlik
Профессионализм	Shartnoma va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish
Xodimlar farovonligi uchun g'amxo'rlik	Vujudga kelgan muammolarni hal qila olish mahorati
Vaziyatga ta'sir qila olish qobiliyati	
Mahsulot va xizmatlarning imidi haqida g'amxo'rlik	

### 5-rasm. Tadbirkorlikka xos bo'lgan xususiyatlar<sup>1</sup>

Ushbu yondashuvga asoslangan kontseptsiyada asosiy e'tibor avvalo tadbirkor xulq-atvori, ichki kechinmalari bilan bog'liq jihatlarni o'rghanishga qaratilgan. O'z tadqiqotlari davomida ular yangi bozor imkoniyatlarini qidirish va undan foydalanishga yo'naltirilgan tadbirkorlik korxonasini barpo etish fikrini ilgari sura boshladilar[9]. Ushbu yondashuvning asosiy kamchiligi shundaki, u faqat yangi korxona ochish jarayoninigina o'z ichiga qamrab oladi.


Bugungi kunda olimlar o'z tadqiqotlari davomida yangi texnologiyalarni joriy etish, bozorda qulay imkoniyatlarni qidirishga asoslangan, innovatsiyalarga yo'naltirilgan mukammal tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga alohida e'tibor qarata boshladilar. Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik faoliyatini o'rghanish bo'yicha majmuaviy yondashuv maktabi vakillari ana shu izlanishlar natijasida vujudga keldi.

Tadbirkorlik faoliyati maktabi vakillari mamlakatda tadbirkorlik barqaror rivojlanishi uchun tadbirkor psixologiyasi bilan bog'liq ichki omillarga va tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga asosiy e'tiborni qaratadilar. O'z tadqiqotlari davomida ular yangi bozor imkoniyatlarini qidirish va undan foydalanishga yo'naltirilgan tadbirkorlik korxonasini barpo etish

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlansasi

fikrini ilgari sura boshladilar[9]. Ushbu yondashuvning asosiy kamchiligi shundaki, u faqat yangi korxona ochish jarayoninigina o'z ichiga qamrab oladi.

Keyinchalik yuqoridagi yondashuvlarni birlashtirib, yangi jihatlarni qamrab olgan tadbirkorlik faoliyatini o'rganish bo'yicha majmuaviy yondashuv maktabi paydo bo'ldi va A.Shapero modeli yaratildi[10]. Ushbu yondashuv vakillari asosiy e'tiborni iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda tadbirkorlik tushunchasini yangi xususiyatlar bilan boyitib borishga qaratdilar. Ular tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi to'rtta xususiyatga alohida e'tibor qaratdilar (5-rasm). Tadbirkorlik faoliyatini o'rganish bo'yicha majmuaviy yondashuv vakillari asosiy e'tiborni tadbirkorga, uning kasbi, qiziqishi, atrofdagi muhit va boshqa jihatlarga qaratadilar. Fikrimizcha, yuqoridagi tadbirkorlik faoliyatini tadqiq etish bo'yicha yondashuvlar iqtisodiyot rivojlanishi bilan bog'liq holda asta-sekinlik bilan mukammallahib borgan.



**6-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi asosiy xususiyatlar<sup>1</sup>**

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq olimlarning ilmiy-nazariy fikr-mulohazalarini o'rganish ushbu tushunchani ahamiyatli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. O'z navbatida, yuqorida keltirilgan olimlar tadbirkorlikka oid yondashuvlarining xilma-xilligi tadbirkorlikka oid yagona xulosaga kelish imkonini bermaydi.


Yuqorida "tadbirkorlik" kategoriyasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni chuqur tahliliy o'rganish asosida quyidagi mualliflik ta'rifini keltirishni lozim topdik. Demak, **tadbirkorlik**- iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida muayyan maqsadga erishish yo'lida (foyda olish) texnologik, tijorat va tashkiliy yangiliklarni muvaffaqiyatli joriy etish orqali qiyomatga ega bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdir. Ayni paytda kichik tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi "tadbirkorlik" kategoriyasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni chuqur tahliliy o'rganish asosida mualliflik ta'rifini taklif etish, kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi uchun shart-sharoitlar holatini statistik tahlil etish, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash bo'yicha chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish, hamda hududiy biznes modelni taklif etishga qaratilgan bo'lib, bunda iqtisodiy statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalananib hududda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar, respublika va hududlarda kichik tadbirkorlikning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni statistik tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan holda baholashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Tadbirkorlik murakkab iqtisodiy faoliyat turi hisoblanib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan normativ-huquqiy bazani mukammal ishlab chiqilishini talab qiladi. Yangidan o'z faoliyatini boshlayotgan hududiy kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun bank kreditlari mavjud emasligi yoki yuqori foiz stavkasida belgilanganligi, shuningdek, ular faoliyatini rivojlantirish uchun mahalliy byudjetdagi moliyaviy mablag'lar taqchilligi, ishlab chiqarish infratuzilmalari yaxshi taraqqiy etmaganligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida bir qator to'siqlarni vujudga keltirib chiqarishi mumkin. Bu

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi

to'siqlar kichik tadbirkorlik sub'ektlari ishchanlik faoliyati pasayishiga yoki umuman barham topishiga olib keladi va ushbu soha rivojlanishiga to'sqinlik qiladi (6-rasm).



#### 6-rasm. Kichik tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy shart-sharoitlar<sup>1</sup>


Hudud kichik tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun birinchi navbatda yer uchastkalari, ko'chmas mulk, asosiy vositalar, ofis binolari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash doirasida tadbirkorlik faoliyatini modernizatsiyalashda uning infratuzilmasi muhim rol o'yaydi.

Transport, logistika infratuzilmalari sifati, yangi energetik quvvat bilan ta'minlanganligi, elektr tarmoqlari, gaz ta'minoti xizmatlari sifati kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kichik tadbirkorlik o'z faoliyati davomida ijtimoiy funksiyani ham bajarib, aholini ish bilan bandligini ta'minlashda katta kuch hisoblanadi.

Ma'muriy muhit va xavfsizlik, ya'ni ma'muriy to'siqlarning umumiy darajasi, soliq idoralari faoliyati sifati, qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy bazaning amaliyotda qanday natija berayotganligi, huquq-tartibot idoralari faoliyatining qay darajada shaffofligi, korruptsiyaning umumiy darajasi tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi yoki batamom tugatilishida o'zining bevosita ta'siriga ega.

Hududiy kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi(7-rasm).

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi



**7-rasm. Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari<sup>1</sup>**

Ulardan eng muhimlari kichik tadbirkorlikni normativ-huquqiy ta'minoti bo'lib, bunda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlanishini ta'minlaydigan huquqiy bazani mukammallashtirish, sohaga oid hududiy qonunchilikka qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutadi.

Ilg'or moliyaviy texnologiyalarni tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan kredit tashkilotlarini shakllantirish, kichik tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanish, kredit resurslarini arzonlashtirish choralarini, shart-sharoitlarini yaratish, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini investitsion qo'llab-quvvatlashning kafolatlangan mehanizmlaridan foydalanish, mikrokreditlash, lizing va franchayzingni rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik sub'ektlari salohiyatini aniqlash va undan unumli foydalanish uchun hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kichik tadbirkorlik rivojlanishini nazarda tutuvchi biznes modelni ishlab chiqish muhim sanaladi (8-rasm).

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu kengash viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati, ularni qynab kelayotgan eng muhim muammolarni o'rganib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.


Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish ushbu tadbirkorlik modelining eng muhim yo'nalishlaridan biri sanalib, o'z faoliyatini amalga oshirayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari hamda ushbu faoliyat turi bilan

shug'ullanish istagida bo'lganlarning huquqiy qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi. Shuni ham alohida qayd etib o'tish lozimki, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi

tomonidan ishlab chiqilayotgan huquqiy-me'yoriy asoslar ularni bevosita qo'llab-quvvatlash hamda hududdagi foydalanilmayotgan tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish va undan unumli foydalanishi nazarda tutishi lozim.

Har qanday hudud ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda davlatning investitsion siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu biznes model viloyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun kichik tadbirkorlikning eng muhim yo'nalishlariga kapital va investitsiyalarni jalb etish zarurligini belgilab beradi.



**8-rasm. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha hududiy biznes model<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi

Xulosalar va takliflar. Amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish uchun texnoparklar, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriylar faoliyatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Hududda tadbirkorlik muhitini barqarorlashtirish uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy va mulkiy qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tiborni qaratish ahamiyatlidir. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosati, axborot va kadrlar ta'minoti, shuningdek tadbirkorlik madaniyati ham muhim sanaladi.

Fikrimizcha, hududda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi jihatlarga asosiy e'tibor berish zarur:

kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilayotgan investitsiyalar viloyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun muhim iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishga sarflanishi lozim;

tadbirkorlarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, konsalting qo'llab-quvvatlash xizmatini tashkillashtirish, tadbirkorlik madaniyatini oshirishni tashkil etish zarur. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida vujudga kelayotgan qandaydir muvaffaqiyatsizliklar kelgusidagi tadbirkorlik muhitining kengayishiga katta to'siqlarni vujudga keltirishi mumkin;

kichik tadbirkorlik sub'ektlari assotsiatsiyasini tashkil etish, shuningdek, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va samarali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida ko'proq qo'shimcha moliyaviy mablag'larni safarbar etishga qaratilishi zarur;

viloyatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ularning soni ko'payishi bilan cheklanib qolmasdan, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlar sifatiga ham asosiy e'tibor berilsa, barqaror faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida hududning iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradi.

Viloyatning barcha tumanlarida kichik tadbirkorlik bir tekis rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish muhimdir. Ushbu muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin: tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun mablag' yetishmasligi, markazdan uzoqda joylashgan hududlarda infratuzilma yaxshi rivojlanmaganligi, tadbirkorlik bo'yicha bilim va tajribaning pastligi, hudud iqtisodiyotida muayyan tarmoqning ustuvorlikka egaligi va boshqalar.

Ushbu holatlar viloyatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatini kamaytirishi, hamda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining integratsion aloqalarini cheklab qo'yishi mumkin, bu esa o'z navbatida hududiy kichik tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan o'ziga xosliklarni e'tibordan chetda qoldirmaslikni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnila aytish mumkinki, viloyat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishga erishishi uchun ushbu hududiy biznes modelni amaliyatga tadbiq etish orqali kichik tadbirkorlik sub'ektlari salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish orqali qulay tadbirkorlik muhitini yaratishdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni
2. Sh.M. Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2023 yil. 1 son. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Эксмо, 2007. — (Серия: Антология экономической мысли) — 960 с.
4. Сэй Ж.Б. Трактат политической экономии. — М., 1986. С.43–45.

5. Блауг М. Очерк Кантильона//Экономическая мысль в ретроспективе. М.: Дело, 1994. 627 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов (книги I-III) / пер. с англ., вв.ст. и комм. Е.М. Майбурда. М.: Наука, 1993. 572 с.; Thünen J.H. Der naturgemäße arbeitslohn und dessen Verhältniß zum Zinsfuß und zur Landrente Erste Abtheilung Rostock: Leopold, 1850. 285 p. F. Knight. Risk. Uncertainty and Profit, 1921.; Шумпетер Й. Теория экономического развития: ( Исслед. Предприн. Прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры) / пер. с нем. В.С. Автономова и др. М.: Прогресс, 1982. 456 с.; Сэй Ж.Б. Трактат по политический экономии. – М.; 1986. С.43-45.; Бастия Ф. Экономические софизмы. Экономические гармонии/вступ. ст. и комм. Сост. М.К. Бункиной, А.М. Семенова. М.: Акад.нар. хоз-ва при Правительстве РФ: Дело, 2000, 229 с.; Хайек Ф.А. Общество свободных. /Пер. с англ. – М., 1990. С. 76.; Мизес Л. Теория и история: интерпретация социально-экономической эволюции. М.: ЮНИТИ ДАНА, 2001. 295 с.; Зомбарт В. Современный капитализм: введение. Докапиталистическое хозяйство. Исторические основы современного капитализма: монография. М.: Гос. изд-во, 1931. 560 с.; Вебер М. История хозяйства: очерк всеобщей социальной и экономической истории. Петроград: Наука и школа, 1923.240с.; Gartner W.B. Who is an entrepreneur' is the wrong question. American Small Business Journal, 1988, vol. 12 (4), pp. 11–32.; Davis S., Haltiwanger J., Schuh S. Small business and job creation: Dissecting the myth and reassessing the facts. Small Business Economics, 1996, vol. 8 (4), pp. 297–315.; Shapero A. Création d'entreprises et développement local. CPE Etude, 1983, vol. 7, pp. 65–81.; Нельсон Р., Уинтер С. Эволюционная теория экономических изменений. М.: Финстатинформ, 2000. 535 с.; Маклеланд Д. Мотивация человека. СПб.: Питер, 2007. 926 с.; Denson J.V. World War I as fulfillment: Power and the intellectuals. The Costs of War. New Jersey: Transaction Publishers, 1997. Pp. 203-254.
6. Макконелл К., Брю С. Экономикс. Принципы, проблемы и политика. Т. 1. М., 1992
7. Хайек Ф.А. Общество свободных. /Пер. с англ. – М., 1990. С. 76.; Мизес Л. Теория и история: интерпретация социально-экономической эволюции. М.: ЮНИТИ ДАНА, 2001. 295 с.
8. Нельсон Р., Уинтер С. Эволюционная теория экономических изменений. М.: Финстатинформ, 2000. 535 с.
9. Gartner W.B. Who is an entrepreneur' is the wrong question. American Small Business Journal, 1988, vol. 12 (4), pp. 11–32. Davis S., Haltiwanger J., Schuh S. Small business and job creation: Dissecting the myth and reassessing the facts. Small Business Economics, 1996, vol. 8 (4), pp. 297–315.
10. Shapero A. Création d'entreprises et développement local. CPE Etude, 1983, vol. 7, pp. 65–81.
11. <https://www.un.org>humansecurity/agenda-2030>.